

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yillar yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*





Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **82,9** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **17,2** mingtaga kamaygan yoki **17,2 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **27,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023-yilning yanvar-iyunida **8210** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,1 %** ga ko'p demakdir.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotganlari soni jami **82951** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **8210** tani tashkil etdi

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Chilonzor tumanida **10012** tani yoki jamiga nisbatan **12 %** ni tashkil etdi.

1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1- iyul holatiga ko'ra

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 27,6 birlikni tashkil etdi.



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 55,8 birlik, Mirobod tumanida 45,5 birlik, Bektemir tumanida 39,5 birlik, Chilonzor tumanida 36,5 birlik, Mirzo Ulug'bek tumanida 29,6 birlikni tashkil etgan.

Yakkasaroy	55,8
Mirobod	45,5
Bektemir	39,5
Chilonzor	36,5
Mirzo Ulug'bek	29,6
Sirg'ali	28,8
Yunusobod	26,5
Yashnobod	24,2
Uchtepa	23,7
Shayxontohur	21
Olmazor	20,2
Yangihayot	13

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra

Eng yuqori ko'rsatkich

Yakkasaroy tumani
– 55,8 birlik.



O'rtacha ko'rsatkich

Sirg'ali tumani –
28,8 birlik.



Past ko'rsatkich

Yangihayot tumani
– 13 birlik.



2023- yilning 1 - iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 55,8 birlik, Mirobod tumanida 45,5 birlik, Bektemir tumanida 39,5 birlik, Chilonzor tumanida 36,5 birlik, Mirzo-Ulug'bek tumanida 29,6 birlik, Sirg'ali tumanida 28,3 birlik, Yunusobod tumanida 26,5 birlik, Yashnabod tumanida 24,2 birlikni tashkil etdi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Yakkasaroy tumani
55,8

01

Mirobod tumani.
45,5

02

Bektemir tumani
39,5

03

Chilonzor tumani
36,5

04

Mirzo Ulug'bek tumani
29,6

05

Sirg'ali tumani.
28,8

06

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yanvar-iyunda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

891	Mirzo Ulug'bek	1083
930	Yunusobod	940
953	Chilonzor	934
722	Yashnobod	784
728	Olmazor	758
621	Mirobod	732
710	Shayxontohur	673
657	Yakkasaroy	731
626	Uchtepa	517
451	Sirg'ali	509
247	Yangihayot	351
200	Bektemir	198

2022- y.

2023- y.


2023- yilning yanvar-iyunda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Bektemir	2,41
Yangihayot	4,28
Sirg'ali	6,2
Uchtepa	6,3
Shayxontohur	8,2
Yakkasaroy	8,9
Mirobod	8,92
Olmazor	9,23
Yashnobod	9,55
Chilonzor	11,38
Yunusobod	11,45
Mirzo Ulug'bek	13,19


2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirzo Ulug'bek tumanida – **13,19** %, Yunusobod tumanida – **11,45** %, Chilonzor tumanida – **11,38** %, Yashnobod tumanida – **9,55** %, Olmazor tumanida – **9,23** %, hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillar yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




■ 2022- y. ■ 2023- y.

2023- yil 1- iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **3241** ta, sanoatda **764** ta hamda qurilishda **597** ta yangidan tashkil etilgan.


Shaharning tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Mirzo Ulug'bek tumanida **1083** ta, Yunusobod tumanida **940** ta hamda Chilonzor tumanida **934** ta yangidan tashkil etilgan.

2018-2023-yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




2018-2023-yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023 - yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **40,9%** ni tashkil etdi. 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,1 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023 - yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **67,5 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **111,5 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023 - yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **80,1 %** ni tashkil etib, 2022 - yilga nisbatan o'sish sur'ati **131,2 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **80,9 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




2023-yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **4 476** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **1 642 (36,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **2 428 (54,2 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **406 (9,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,4 % (1 719 ta)**, xizmatlar sohasida – **38,4 % (1 859 ta)**, sanoatda – **13,2 % (591 ta)**, qurilishda – **6,6 % (296 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **0,2 % (11 ta)** ni tashkil etdi.

2023-yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	38,2	37,8	15,2
Band bo'lganlar soni	22,3	59,3	9,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	27,3	57,3	5,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	20,2	61,6	7,3
Raqobat muhiti	28,1	55,8	5,2

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,6	50,0	5,4
Band bo'lganlar soni	25,4	70,9	3,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	26,9	69,2	4,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	24,9	70,8	4,3
Raqobat muhiti	30,1	65,9	4,0


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli